



Konstitusiyamizning yaratilish tarixi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi tarixi haqida so'z yuritishdan oldin "Konstitutsiya nima?" degan savolga javob berish maqsadga muvofiqdir.

Konstitutsiya (lotincha "Constitution" – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi birinchi huquqiy qadam – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidir.

"O'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to'g'ri aytishadi". "Har qaysi millat, katta yo kichikligidan qat'iy nazar, o'z ona tilini hurmat qiladi".

“Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunda mustahkamlangan muhim huquqiy qoidalar endilikda Asosiy Qonunimizning 4-moddasida quyidagicha muhrlab qo‘yildi:

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi ikkinchi huquqiy qadam – Prezidentlik instituti ta‘sis etilishi va yangi davlat ramzlarini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuzilishi bilan bog‘liq.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi uchinchi huquqiy qadam – “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning e‘lon qilinishidir.

O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990-yil 20-iyunda e‘lon qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning 8-bandida O‘zbekiston “o‘zining taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o‘zi ta‘sis etadi” degan qoida mustahkamlangan.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi to‘rtinchi huquqiy qadam – Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishiga borib taqaladi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi beshinchi huquqiy qadam – Birinchi Prezidentimizning Hindistonga 1991-yilgi tashrifi bilan chambarchas bog‘liq.

Bir so‘z bilan aytganda, istiqolol arafasida vujudga kelgan og‘ir sharoit, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qiyinchiliklarga, turli to‘siqlarga qaramasdan, xalqimiz o‘zining asriy orzusi – O‘zbekistonning davlat suvereniteti va mustaqilligi sari qat‘iyat bilan harakat qilishda davom etdi. O‘sha beorom davrda qabul qilingan Prezident farmoni va qarorlarida aks etgan muhim huquq va qoidalar keyinchalik Konstitutsiyamizning asosiy bo‘lim, bob va moddalari sifatida mustahkamlandi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi oltinchi huquqiy qadam – Davlat mustaqilligining e‘lon qilinishidir.

Mamlakatimiz rahbarining 1991-yil 31-avgustda, o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida so‘zlagan nutqi, ayniqsa, o‘sha nutqdagi: “Men shu bugundan e‘tiboran 1-sentabrni respublikamizda Mustaqillik kuni, umumxalq bayrami deb e‘lon qilishni taklif

etaman”, degan otashin soʻzlari Vatanimiz tarixiga oltin harflar bilan manguga yozilgandir.

Shu kuni “Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari toʻgʻrisida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Undan boʻlajak Konstitutsiyaning oʻzak qoidalarini oʻzida aks ettirgan bir qator muhim moddalar joy oldi. Jumladan, mazkur Qonunga muvofiq:

“Oʻzbekiston Respublikasi toʻla davlat hokimiyatiga ega, oʻzining milliy-davlat va maʼmuriy hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi” (3-modda);

“Oʻzbekiston Respublikasida Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi” (5-modda).

Bu Konstitutsiyaviy qonun Asosiy Qonunimiz qabul qilinguniga qadar, yaʼni 1992-yil 8- dekabrgacha biz uchun kichik Konstitutsiya vazifasini bajarib turdi.

Konstitutsiyani yaratish yoʻlidagi yettinchi huquqiy qadam – 1991-yil 29-dekabrda Prezident saylovi va Davlat mustaqilligi toʻgʻrisidagi referendumning oʻtkazilishiga taalluqli.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va Respublika davlat mustaqilligi toʻgʻrisidagi referendum 1991-yil 29-dekabrda boʻlib oʻtdi. Xalq davlat mustaqilligini qoʻllab ovoz berdi va Prezidentni sayladi. 1992-yil 4-yanvar kuni Oliy Kengashning ana shu saylov va referendum yakunlariga bagʻishlangan toʻqqizinchi sessiyasi ochildi.

Konstitutsiyani yaratish yoʻlidagi sakkizinchi huquqiy qadam – birinchi Konstitutsiya loyihasining ilk bor matbuotda umumxalq muhokamasi uchun eʼlon qilinishidir.

Loyiha eʼlon qilingach, uning umumxalq muhokamasi juda keng tus oldi. Bu ochiq-oshkora muhokamalar 1992-yilning sentabr oyi oxiridan dekabr oyi boshlarigacha fuqarolarning siyosiy faolligi, ijodiy koʻtarinkiligi ruhida oʻtdi hamda Oʻzbekistonda demokratiya rivojining samarali va amaliy maktabi boʻldi.

Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Respublika matbuotining oʻzida Konstitutsiya loyihasiga bagʻishlangan

yuzdan ortiq materiallar e'lon qilindi. Fuqarolarimiz bildirgan takliflar soni 5 mingdan oshib ketdi.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi to'qqizinchi huquqiy qadam – Konstitutsiya loyihasining ikkinchi marta matbuotda umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilinishidir.

Konstitutsiya loyihasini ikki bosqichda muhokama etish uchun matbuotda e'lon qilinishining ma'nosi shundan iborat ediki, fuqarolar Konstitutsiyaning qayta ishlangan variantida Konstitutsiya loyihasini muhokama qilishdagi o'z ishtiroklarining natijasini ko'ra oldilar.

Konstitutsiya loyihasining yangi variantida umumxalq muhokamasining dastlabki bosqichida kelib tushgan ko'plab fikr-mulohazalar va takliflar o'z ifodasini topdi. Fuqarolarimiz Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan ularning ovozi eshitilganiga, takliflari tegishli ravishda ko'rib chiqilib, inobatga olinganiga ishonch hosil qildilar.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi o'ninchi huquqiy qadam – Konstitutsiya loyihasining qabul qilinishidir.

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan 1992-yil 6-dekabrda Konstitutsiya loyihasi oxirgi marta muhokama etildi.

Parlament deputatlari tomonidan loyiha moddama-modda muhokama qilinib, unga yana bir qator o'zgartishlar kiritilgach, 1992-yil 8-dekabr kuni Bosh Qomusimiz qabul qilindi. Shu kundan e'tiboran, 8 dekabr – umumxalq bayrami deb e'lon qilindi.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi mustaqil jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantirdi va mustahkamladi.



[Download PDF](#)